

## O‘ZBEKISTONDA O‘RMON XO‘JALIKLARINI MOLIYASHLASHTIRISHNING NAZARIY HUQUQIY ASOSLARI

**KARIMOV DILSHOD TURABBOYEVICH**

*Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti*

*“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi o‘qituvchi stajyor*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada O‘zbekistonda o‘rmon xo‘jaliklarini moliyashlashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari haqida fikrlar keltirilgan. Shuningdek so‘nggi yillarda mamlakatimizning o‘rmon xo‘jaligi sohasini yanada rivojlantirish, o‘rmon resurslarining boy salohiyatidan to‘la-to‘kis va oqilona foydalanishni ta‘minlash, o‘rmon fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, sohaga ilg‘or ilmiy-texnika yutuqlarini joriy etish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va ekologik turizmni rivojlantirish haqida tahlillar keltirilgan. Respublikada mavjud o‘rmon xo‘jaligini boshqarish jarayonidagi qabul qilinayotgan hukumat qarorlarini o‘rgangan holda muhim tavsiyalar berilgan*

**Kalit so‘zlar:** *O‘rmon xo‘jaliklari, o‘rmon fondi, “Yashil makon”, Global ekologik fond (GEF), “O‘rmonloyiha” “o‘rmon bo‘limlari”, “o‘rmon kvartallari”, “o‘rmonli yerlar”, “o‘rmonsiz yerlar” “yashil bog‘lar”.*

### KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizning o‘rmon xo‘jaligi sohasini yanada rivojlantirish, o‘rmon resurslarining boy salohiyatidan to‘la-to‘kis va oqilona foydalanishni ta‘minlash, o‘rmon fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, sohaga ilg‘or ilmiy-texnika yutuqlarini joriy etish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va ekologik turizmni rivojlantirish kabi dolzarb masalalarni o‘z ichiga qamrab olgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘rmon xo‘jaliklarini barqaror iqtisodiy rivojlanishi mamlakatni muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish umumiy strategiyasini muhim qismi hisoblanadi. Respublikada o‘rmonlarni barqaror rivojlanishi ularni samarali, himoya va boshqa funksiyalari muvozanatini saqlashga asoslanishi kerak. Bundan tashqari, o‘rmon xo‘jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini belgilovchi asosiy komponentlar, ilgari hal qiluvchi iqtisodiy va tijorat nuqtai nazaridan farqli o‘laroq, o‘rmonlarning ekologik-ijtimoiy funksiyalari sifatida tan olingan.

O‘rmonlar nafaqat mo‘tadil, balki boshqa turdagi o‘rmonlarning qoplami atrof-muhit holatini, shu jumladan umuman tabiiy holatni saqlashni belgilaydi. O‘rmon turlarning xilma-xilligini yo‘qotish aholining oziq-ovqat, uy-joy va madaniy ehtiyojlarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishni yomonlashishiga olib keladi. Bir

tomondan, organik xom ashyoning ulkan manbai bo'lgan o'rmon moddiy ishlab chiqarishda almashtirib bo'lmaydigan bo'lib, yog'ochdan olinadigan mahsulotlarni xilma-xilligi va miqdori bo'yicha cheklovlarga ega emas, boshqa tomondan, o'rmonlarni himoya funksiyalari hozirgi vaqtda insonning yashash muhitini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida o'rmon fondini muhofaza qilish, ko'paytirish, undan oqilona foydalanish, uning moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, sohaga bozor mexanizmlarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish hisobiga ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish, shuningdek, 2030 yilgacha bo'lgan davrda o'rmon xo'jaligini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 avgustda "Respublikada o'rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4424-son qarori qabul qilindi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamiz o'rmon resurslarining boy salohiyatidan to'la-to'kis va oqilona foydalanishni ta'minlash, o'rmon xo'jaligi boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, o'rmon fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, sohaga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlarini joriy etish, o'rmon xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni yanada faol jalb etish va ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida

2017 yil 11-may kuni qabul qilingan "O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2966 Prezident qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi negizida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda bo'linmalariga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tashkil qilindi.

Hujjatda ta'kidlanishicha, qo'mitani tashkil etishdan ko'zlangan maqsad — respublika o'rmon resurslarining boy salohiyatidan to'la-to'kis va oqilona foydalanishni ta'minlash, o'rmon xo'jaligi boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, o'rmon fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, sohaga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlarini joriy etish, o'rmon xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni yanada faol jalb etish va ekologik turizmni rivojlantirish.

O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasining huquqlari va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi. Uning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir. Tuzilma raisi va uning o'rinbosarlari O'zbekiston Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadi va lavozimdan ozod etiladi.



O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining qishloq va suv xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste‘mol tovarlari masalalari kompleksi tarkibiga kiradi.

O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardir:

– o‘rmon xo‘jaligi sohasida o‘rmon boyliklarini har tomonlama kengaytirish va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan yagona davlat siyosatini yuritish;

– o‘rmon to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularga rioya etilishini amaliy nazorat qilish;

– o‘rmon fondi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni samarali boshqarishni tashkil etish, o‘rmon barpo etish, ularni qayta tiklash, qo‘riqlash, muhofaza qilish, o‘rmonlardan oqilona va tejamli foydalanish;

– respublikada o‘rmonlarni tiklash va ihota o‘rmonlarini ko‘paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tog‘ yonbag‘irlari, jarliklar va tashlandiq yerlarda eroziyaga qarshi daraxtzorlar barpo etish ishlari bajarilishini tashkil qilish;

– o‘rmon fondini, fauna va florasini o‘rganish hamda ularning qat’iy hisobini yuritish, o‘rmon xo‘jaligini yuritish amaliyotiga fan yutuqlari va ilg‘or tajribani joriy etish;

– o‘rmonlarni yong‘inlardan, zararkunanda va kasalliklardan, noqonuniy daraxt kesishdan va boshqa o‘rmon qonunchiligi buzilishlaridan muhofaza qilish;

– manzarali o‘simliklar ko‘chatlari va urug‘larini sertifikatlash va standartlashtirishning yagona tizimini ishlab chiqish hamda joriy qilishni tashkil etish;

– o‘rmon xo‘jaliklarida bir-biriga bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish, ko‘chat yetishtirish, dorivor o‘simliklar to‘plash, asalarichilik, baliqchilik, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hamda ularni chuqur qayta ishlash, xalq iste‘moli tovarlari ishlab chiqarishni tashkil etish;

– tarmoqqa xalqaro moliya institutlari grantlarini jalb etish va ekologik turizmni keng ko‘lamda rivojlantirish;

– o‘rmon xo‘jaligi sohasida o‘rta maxsus va oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari o‘rmon xo‘jaligi boshqarmalari tashkil etiladi. Andijon, Sirdaryo va Xorazm davlat o‘rmon xo‘jaliklari bevosita O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasiga idoraviy bo‘ysunadi.

Bundan tashqari, Manzarali bog‘dorchilik va o‘rmon xo‘jaligi respublika ilmiy-ishlab chiqarish markazi negizida O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat

qo‘mitasi tizimida O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi. Uning vazifalari Prezidentning joriy farmoni bilan belgilab beriladi.

Ta‘kidlash joizki, 2017 yilda o‘rmon fondi umumiy yer maydoni 10,5 mln. gektarni tashkil etgan bo‘lsa (mamlakatimizning umumiy yer maydonining 23,4 foizi), hozirgi kunda 12 mln. gektarni tashkil etadi (mamlakatimizning umumiy yer maydonining 26,7 foizi), ya‘ni besh yildan ko‘proq davr mobaynida amalga oshirilgan o‘rmonlashtirish tadbirlari natijasida o‘rmon fondi yer maydonlari 1,5 mln. gektarga ko‘paytirildi.

Orol dengizining qurigan tubida 1 mln. 700 ming gektar maydonda cho‘l o‘simliklaridan “yashil qoplamalar” - himoya o‘rmonzorlari barpo etildi.

O‘rmon fondi yer maydonining 85,5 foizi (10 mln. 260 ming gektar) cho‘l, 13,2 foizi (1 mln. 584 ming gektar) tog‘, 0,2 foizi (24 ming gektar) vodiy, 1,1 foizi esa (132 ming gektar) to‘qay hududlaridan iborat.

O‘rmon barpo qilish, niholxona va ko‘chatxonalar tashkil etish hamda ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari uchun daraxt va butalarning urug‘larini tayyorlash sohadagi asosiy tadbirlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, 2017 yilda 290 tonna daraxt va butalar urug‘lari jamg‘arilgan bo‘lsa, 2022 yilda 1,7 ming tonnaga yetkazilgan, ya‘ni o‘shish sur‘ati 6 barobarga oshirilgan hamda 2017 yilda 34 mln. dona nihol va ko‘chatlar yetishtirilgan bo‘lsa, 2022 yilda 113 mln. dona yetishtirilgan, ya‘ni o‘shish sur‘ati 3 barobarga oshirilgan.

Bundan tashqari, o‘rmon fondi yer maydonlarida jami tez o‘sovchi 18 mln. dona ko‘chatlar yetishtirilib, 1500 gektar yer maydonda pavlovniya plantatsiyalar barpo etilgan.

O‘rmon barpo etish ishlari 2017 yilda 46,9 ming gektar yer maydonda amalga oshirilgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2021 yilda 671 ming gektar yer maydonda o‘rmon barpo etilgan bo‘lib, 2017 yilga nisbatan 14 barobarga oshirilgan.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 200 mln. donadan ko‘proq qalamcha, nihol va ko‘chatlar ekildi hamda respublikamiz hududlarida jami 588,4 gektar yer maydonda “yashil bog‘lar” va 662,3 gektar yer maydonda “yashil jamoat parklari” barpo etish ishlari amalga oshirildi.

O‘tgan davrda foydalanilmayotgan 68,8 ming gektar o‘rmon fondi yer maydonlari jami 6 ming 892 ta shartnoma asosida jismoniy va yuridik shaxslarga ijaraga berildi. Natijada, 20 ming 204 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Shuningdek, 2017 yilda 1,3 ming gektar o‘rmon fondi yer maydonlarida dorivor va oziq-ovqatbop o‘simliklarning madaniy plantatsiyalari barpo etilgan bo‘lsa, 2022 yilda 4,8 ming gektar yer maydonda barpo etildi, ya‘ni o‘shish sur‘ati 3 barobarga oshirildi.

Dorivor o‘simliklar xomashyosini tayyorlash ko‘rsatkichi 2017 yilda 3,2 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 8 ming tonna mahsulot tayyorlangan yoki 2,5 barobarga oshirilgan.

O‘rmon xo‘jaliklarida 2017 yilda chorva bosh soni 18 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda xususiy sektor sub’ektlari bilan birgalikda chorva bosh soni 160 ming boshga yetkazildi.

Parrandachilikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan ishlar natijasida parrada bosh soni 2017 yilda 12,1 ming dona bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda xususiy sektor sub’ektlari bilan birgalikda 1,1 mln. boshga yetkazildi.

O‘rmon fondi yerlarida asalari oilalari soni 2017 yilda 11,8 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda ushbu ko‘rsatkich xususiy sektor sub’ektlari bilan birgalikda 210 ming donaga yetkazildi.

O‘tgan davrda o‘rmon fondi yer maydonlarida ekoturizm ob’ektlari soni 272 taga yetkazildi hamda 30 ta yangi ekomarshrutlar ishlab chiqilib, xaritalari yaratildi. Hozirgi kunda o‘rmon fondi yer maydonlarida 124 ta 386 mlrd. so‘mlik ekoturizm loyihalari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda 2021 yilda 7 ta grant loyihasi amalga oshirildi hamda qiymati 9 mln. AQSh dollariga teng 2 ta mintaqaviy loyiha amalga oshirilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, 2022 yilda Jahon banki tomonidan mamlakatimiz o‘rmon xo‘jaligi sohasiga 142 mln. AQSh dollari miqdorida imtiyozli kredit ajratilishi ma’qullandi hamda 2023 yilda qiymati 40 mln. AQSh dollariga teng 7 ta loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha muzokaralar (Global ekologik fond (GEF), Yevropa investitsiya jamg‘armasi (EIF), Jahon banki (TWB)) olib borilmoqda.

O‘rmon xo‘jaligi sohasida ishlayotgan kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan davrda oliy ma’lumotli kadrlar salmog‘i 12 foizdan 25 foizga, shu jumladan, oliy ma’lumotli o‘rmonchi mutaxassislarini ishga qabul qilish ko‘rsatkichi esa 711 taga yoki 62 foizga oshdi.

Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida qiymati 3,15 mlrd. so‘mlik 6 ta loyiha amalga oshirildi.

Xususan, qurigan Orol dengizi tubining turli tuproq sharoitlarida jami 2 gektar maydonda hudud iqlimiga mos bo‘lgan 15 turdan ortiq cho‘l o‘simliklarining genofondi tashkil etildi.

O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti, Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazi, “O‘rmonloyiha” loyihalash instituti tashkil etildi.

Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish maqsadida O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti tizimida 1 ta filial, 5 ta tajriba stantsiyasi va 2 ta ilmiy markazlari tashkil etildi.



Soha olimlari tomonidan yaratilgan mahalliy sharoitga mos bo'lgan pistaning yangi 13 ta navlari davlat reyestriga kiritildi va 8 ta davlat o'rmon xo'jaliklarida onalik bog'lari tashkil etildi.

Germaniya, Italiya, Gretsiya va Turkiya kabi davlatlardan olib kelingan 76 turdagi yog'ochbop duragay terak navlaridan istiqbolli turlari tanlab olinib, respublikaning bir qator hududlarida yetishtirish joriy etildi. Yog'ochbop o'rmon mahsulotlarini ko'paytirish maqsadida xorijiy davlatlardan tez o'suvchi terakning yangi 6 turi va pavlovniyaning 2 ta duragaylari olib kelinib, "in-vitro" laboratoriyasida ko'chatlarini yetishtirish yo'lga qo'yildi.

O'rmon xo'jaligi sohasiga chet el moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarini, zamonaviy texnologiyasi va boshqaruv sohasidagi tajribasini jalb etish va ulardan omilkorlik bilan foydalanish maqsadida o'rmon xo'jaligi rivojlangan AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Xitoy, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Eron va boshqa xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlandi.

Jumladan, o'tgan davrda Turkiya (Axmad Yalvoch), Janubiy Koreya (Professor Li Duk San) va Yaponiya (Takeda Yasuke)dan 3 nafar ekspert uzoq muddatga mamlakatimizga xalqaro ekspert mutaxassis sifatida jalb qilindi.

O'rmon xo'jaliklarining yalpi daromadi 2017 yilda 73,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022 yilda 265 mlrd. so'mga yetkazildi.

2023 yilga kelib O'rmon fondi yerlari 11,9 mln. gektarni, ya'ni Respublika umumiy yer maydonining 26,4 foizi (2017 yilda 10,5 mln gektar, 23,4 foiz)ni tashkil qiladi, shundan o'rmonzorlar maydoni 5,3 mln. gektar (11,8 foiz), shu jumladan, o'rmon bilan qoplangan yer maydoni 3,5 mln. gektarni, ya'ni Respublika umumiy yer maydonining 7,7 foizi (2017 yilda 3,1 mln gektar, 6,9 foiz)ni tashkil etadi.

Umumiy maydonning 3 468 856 gektari o'rmon bilan qoplangan maydon (shundan, 2 270 465 gektar tabiiy, 1 198 391 gektar madaniy o'rmonzorlar), 1 036 205 gektar tutashmagan yosh o'rmonzorlar, 1349 gektar o'rmon ko'chatxonalari, 640 759 gektar siyrak qoplanmagan o'rmonzorlar, 174 637 gektar taqir yerlar, 22 142 gektar ekin yerlar (shundan, 9 589 gektar lalmi,

12 553 gektarsug'oriladigan), 32 868 gektar pichanzorlar, 2 632 818 gektar yaylovlar, 4 155 gektar bog'lar, 33 527 gektar rariq-zovurlar, 7 681 gektar yo'llar, 4 890 gektar aholi yashash joylari, 893 gektar botqoqliklar, 90 336 gektar qumliklar, 3 323 gektar muzliklar, 3 703 690 gektar boshqa foydalanilmaydigan yerlardan iborat.

O'rmon fondining 81,8 foizi (9 701 418 gektar) cho'l hududi, 13,7 foizi (1 618 578 gektar) tog' hududi, 4,2 foizi (503 147 gektar) to'qay hududi, 0,3 foizi (34 987 gektar) vodiy hududidan iborat.

O'rmon xo'jaligi agentligi tizimida 63 ta davlat o'rmon xo'jaliklari va 12 ta dorivorchilikka ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaliklari va 4 ta o'rmon ishlab

chiqarish korxonalari faoliyat yuritadi hamda ularning umumiy yer maydoni 6,6 mln gektarni (umumiy oʻrmon fondining 55 foizi) tashkil etadi.

Qoʻriqxonalar, milliy tabiat bogʻlari, oʻrmon-ov xoʻjaliklari, oʻrmon tajriba xoʻjaliklari Ekologiya vazirligi tasarrufida boʻlib, ulaning umumiy maydoni 5,3 mln gektardan (umumiy oʻrmon fondining 45 foizi) iborat.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 dekabrda 993-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat oʻrmon fondi uchastkalarini ijaraga berish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom asosida oʻrmon fondining 78,8 ming gektar yer maydonlari 7 ming 430 ta yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga berilgan boʻlib, 2023 yilda shartnoma shartlarini bajarmagan, ijara toʻlovini toʻlamagan va yerdan foydalanmagan yoki samarasiz foydalanayotgan 753 nafar ijarachilardan 30 ming gektar yer maydonlari belgilangan tartibda qaytarib olinishiga erishildi.

Oʻrmon fondi yer maydonlarida oʻrmonlarni kengaytirish tadbirlarini amalga oshirish va oʻrmon bilan qoplanganlik darajasini oshirish boʻyicha doimiy ravishda monitoring yuritishni yoʻlga qoʻyish chora-tadbirlarini belgilash maqsadida oʻrmon barpo etish, oʻrmonlarni koʻpaytirish ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, oʻrmon xoʻjaliklari tomonidan doimiy ravishda monitoringi yuritilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-158-son Farmonida respublikada oʻrmon bilan qoplangan maydonlarni 6,1 mil. gektarga yetkazish belgilangan.

Oʻrmon fondi yer maydonlarida oʻrmonlarni kengaytirish, oʻrmon bilan qoplanganlik darajasini oshirish boʻyicha doimiy ravishda oʻrmon barpo etish, oʻrmonlarni koʻpaytirish ishlari amalga oshirib borilmoqda.

2023 yilda Samarqand, Jizzax va Fargʻona viloyatlari hududidagi oʻrmonzorlar maydoni, chegaralari va ularning holatini aniqlash yuzasidan “Oʻzbekkosmos” agentligi bilan shartnoma tuzilib, oʻrmonzorlar maydoni va holatini sunʼiy yoʻldosh orqali aniqlash ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, 2024-2025 yillarda bosqichma-bosqich qolgan hududlarda xam oʻrmonzorlar maydoni va holatini sunʼiy yoʻldosh orqali aniqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha “Oʻzbekkosmos” agentligi bilan shartnoma tuzildi.

“Yashilloyiha” loyihalash instituti tomonidan oʻrmon xoʻjaliklarida oʻrmon tuzish ishlarini sunʼiy yoʻldosh texnologiyalari asosida geografik axborot tizimlarini (GIS) joriy etish, oʻrmon daraxtlari boʻyicha maʼlumotlar bazasini sunʼiy yoʻldosh tasvirlari asosida shakllantirish ishlari yoʻlga qoʻyilgan.

Jumladan, oʻrmon xoʻjaliklarining “oʻrmon boʻlimlari”, “oʻrmon kvartallari”, “oʻrmonli yerlar”, “oʻrmonsiz yerlar” mavzuli qatlamlarini kosmik suratlardan foydalangan holda Davlat oʻrmon kadastri obʼektlari toʻgʻrisidagi yangilangan elektron variantdagi maʼlumotlari Kadastr agentligi Kadastrlar Palatasining Davlat



kadastrlari yagona tizimining ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun yangilangan ma'lumotlar bazasiga muntazam ravishda taqdim etib borilmoqda.

### **2023 yilda O'rmon xo'jaligi agentligi tizimida:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi "O'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ– 4850-son qaroriga muvofiq foydalanilmayotgan 7012 gektar o'rmon fondi yerlari o'zlashtirildi.

Respublikada ekologik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida 235 ming gektar maydonda o'rmon barpo qilish va qayta tiklash tadbirlari amalga oshirildi.

Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo'yi hududlarida qum ko'chishi hamda atmosfera havosiga chang-tuz ko'tarilishini bartaraf etish maqsadida jami 220 ming gektar jumladan, Mo'ynoq tumanida 128 ming gektar, Buxoro viloyatida 43 ming gektar, Navoiy viloyatida 24 ming gektar va Xorazm viloyatida 10 ming gektar maydonda saksovul va boshqa cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamalar" barpo etildi.

O'rmon xo'jaliklari tomonidan 1 100 tonna cho'l va boshqa turdagi daraxt va butalarning urug'lari jamg'arildi.

Niholxona va ko'chat xonalarning umumiy moydoni 1 300 gektarga yetkazilib, 120 mln dona tuproq-iqlim sharoitga mos manzarali, mevali daraxt va butalarning nihol va ko'chatlari, shundan, 32 mln dona tut nihol va ko'chatlari, 14 mln dona terak va pavlovniya nihol va ko'chatlari yetishtirilishi ta'minlandi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2023 yil kuz mavsumida 31 mln dona iqlim sharoitiga mos manzarali, mevali daraxt va butalarning ko'chat va qalamchalari shundan, respublika bo'yicha 9443 ta mahallalarga 2 mln dona, 6739 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 813 ming dona ko'chatlar bepul yetkazib berildi.

Loyiha hujjatlari asosida respublikamizning 134 ta tuman va shaharlarida 347 gektar hamda Zomin davlat o'rmon fondi yerlarida 110 gektar jami 457 gektar maydonda "yashil bog'lar" barpo etish ishlari amalga oshirildi.

Toshkent-Samarqand temir yo'lining Sirdaryo viloyatidan o'tuvchi qismida joylashgan 64 km hududda 91 ming dona, Jizzax viloyatidan o'tuvchi 62,0 km hududda 127 ming jami

218 ming dona hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos ko'chatlar ekish ishlari amalga oshirildi.

Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari dala chetlarida 2500 gektar maydonda ihota daraxtzorlari barpo etilib, 5 mln. dona ko'chatlar ekildi.

Xususiy sektor sub'ektlari bilan birgalikda mayda shoxli chorva mollari soni 170 ming boshga, parranda soni 1 mln 200 ming donaga, asalari oilasi soni 220 ming donaga yetkazildi.



Nukus shahri atrofida 5 km, Urganch shahri va Urganch-Gurlan avtomobil yo‘li atrofida 5 km masofada katalpa, qayrog‘och, yapon saforasi kabi daraxtlar ko‘chatlari ekilib, “yashil belbog‘lar” barpo etildi.

O‘rmonlarni muhofaza qilish va saqlash maqsadida tizim tashkilotlari tomonidan 94 ming gektar maydonda o‘rmon kasallik va zararkunandalariga qarshi kurash ishlari o‘rganilib, 66 ming gektarda maydonda kurash ishlari olib borildi.

O‘rmon yong‘inlarini oldini olish ishlarini muvofiqlashtirish maqsadida Agentlik va tizim tashkilotlarida yong‘in kelib chiqish xavfi yuqori bo‘lgan mavsumda uzluksiz navbatchilik tashkil etildi.

O‘rmon hududlarida yashovchi aholi va o‘rmonga tashrif buyuruvchilar uchun o‘rmondan to‘g‘ri foydalanish, o‘rmon yong‘inlarini sodir etilishini oldini olish maqsadida 2000 dan ortiq ogohlantiruvchi bannerlar joylashtirildi.

5 ming 280 gektar maydonda dorivor va ozuqabop o‘simliklar plantatsiyasi tashkil etilib, 9 062 ming tonna xomashyo yetishtirildi.

2023 yilda 18,7 mln.dollar qiymatdagi 3 ta grant loyihasi bo‘yicha kelishuv imzolandi.

O‘rmon fondi yerlaridagi ekoturizm ob‘ektlari soni 280 taga, eko marshrutlar soni 38 taga, tashrif markazlari soni 5 taga yetkazildi. Olinadigan yalpi daromad 320 mlrd so‘mga yetkazildi. O‘rmon mahsulotlari bo‘yicha Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 8,8 trln so‘mga yetkazildi. O‘rmon xo‘jaliklari tizimida 7,8 ming nafar yangi ish o‘rinlari yaratildi.

### 2024 yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar

**Birinchidan**, o‘rmon fondining 7 ming gektar yer maydonlari o‘zlashtirilib, foydalanishga kiritiladi.

**Ikkinchidan**, 1150 tonna cho‘l va boshqa turdagi daraxt va butalarning urug‘lari jamg‘ariladi.

**Uchinchidan**, hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos 122 mln. dona nihol va ko‘chatlar yetishtiriladi.

**To‘rtinchidan**, respublikada ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida 240 ming gektar o‘rmonzorlar, shu jumladan Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo‘yicha mintaqasida 226 ming gektar maydonda “yashil qoplamalar” barpo etiladi.

**Beshinchidan**, loyiha hujjatlari asosida 347 gektar maydonda “yashil bog‘lar” barpo etiladi.

**Oltinchidan**, sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlar dala chetlarida 2500 gektar maydonda ihota daraxtzorlari barpo etiladi.

**Yettinchidan**, xususiy sektor sub‘ektlari bilan birgalikda mayda shoxli chorva mollari soni 180 ming boshga, parranda soni 1 mil. 300 ming donaga, asalari oilasi soni 230 ming donaga yetkaziladi.

**Sakkizinchidan**, 30,6 ming gektar maydonda oziq-ovqatbop ekinlar ekilib, 29,7 ming tonna mahsulotlar yetishtiriladi.

**To‘qqizinchidan**, 5,6 ming gektar maydonda dorivor va ozuqabop o‘simliklar plantatsiyalari tashkil etilib, 9641 tonna xom ashyosi yetishtiriladi.

**O‘ninchidan**, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan talab kelib chiqqan holda ko‘chat, nihol va qalamchalar yetkazib beriladi.

**O‘n birinchidan**, o‘rmon fondi yer maydonlaridan yanada samarali foydalanish orqali 8,6 ming nafar yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

**O‘n ikkinchidan**, olinadigan yalpi daromad 365 mlrd so‘mga yetkaziladi. O‘rmon mahsulotlari bo‘yicha Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 11 trln. so‘mga yetkaziladi.

### XULOSA VA TAVSIYALAR

Yuqorida keltirilgan “O‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” asosida 2020 yil 1 yanvardan boshlab o‘rmon fondining o‘rmon bilan qoplanmagan yerlarini 49 yilgacha muddatga ijaraga berish tizimi yo‘lga qo‘yildi. O‘rmon fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, shu jumladan, yangi o‘rmonzorlar barpo etish, ish o‘rinlarini tashkil etish, o‘rmondan qo‘shimcha foydalanishni rag‘batlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish maqsadida o‘rmon fondi yerlari foydalanuvchilarini qo‘llab-quvvatlashning bir qator yangi shakllari joriy etildi.

Respublikada o‘rmonlashtirish ishlarini jadallashtirish bilan bir qatorda shahar va aholi yashash hududlarini ko‘kalamzorlashtirish darajasini ham keskin ko‘paytirishga e‘tibor qaratildi. Ushbu masala bo‘yicha 2021 yil noyabr oyida Prezidentimiz tomonidan respublikada “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish tashabbusi ko‘tarildi. Ushbu tashabbusga ko‘ra, 2021-2025 yillarda respublika bo‘yicha har yili 200 mln. tupdan ko‘chat ekish topshirig‘i belgilandi va bu tadbirda mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha vazirlik, idora, tashkilot, muassasa, mahallalar ishtirok etmoqda. Birinchi yilgi topshiriq ortig‘i bilan 206 mln. tup ko‘chat ekib bajarildi. Ushbu tadbir o‘z ko‘lami jihatdan Orol dengizining qurigan tubida amalga oshirilgan ishlardan keyingi eng yirik keng ko‘lamli tadbirdir.

O‘rmonlarni qayta tiklash va o‘rmonlashtirish tadbirlarini jadallashtirish evaziga 2030 yilga borib o‘rmon bilan qoplangan maydonlarni 6,1 million gektarga va respublikaning o‘rmon bilan qoplanganlik darajasini 15 foizga, shuningdek “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish orqali, shahar va aholi yashash hududlarini ko‘kalamzorlashtirish darajasini hozirgi 8 foizdan, 2030 yilga borib 30 foizga yetkazish maqsad qilib olingan.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 avgustda "Respublikada o‘rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-4424-son qarori.
2. 2017 yil 11-may kuni qabul qilingan "O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida"gi PQ-2966 Prezident qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O‘zbekiston-2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-158-son Farmoni.
4. Малышев А. А. Формирование эколого-экономической системы: этапы развития [Электронный ресурс] / А. А. Малышев, Ю. А. Кажаяева // Современные научные исследования и инновации. – 2015. – № 4, ч. 3. – Электрон. дан. – Режим доступа: <http://web.snauka.ru/issues/2015/04/52204>. – Загл. с экрана.
5. <https://urmon.gov.uz/>
6. <https://daryo.uz/k/2017/05/12/ozbekistonda-ormon-xojaligi-davlat-qomitasi-tashkil-etildi>
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2017/05/13/forest/>
8. <https://lex.uz>